




POLAND

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**

SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH



**30 MAY
2023 YEAR**

POLAND, WARSAW





SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific online conference (30th May, 2023) – Poland, Warsaw : "CESS", 2023. Part 10–223 p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, o'zbek, polish, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH** ". Which took place in Warsaw on May 30, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023



Юлдашев Хасан Жаббор угли <i>ВЛИЯНИЕ ХОЛОДНОЙ ВОЙНЫ НА РАЗВИТИЕ МЕДИА-ТЕХНОЛОГИЙ.</i>	98
Юлдашев Хасан Жаббор угли <i>РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ И ИНТЕРНЕТА В ИНФОРМАЦИОННОЙ ВОЙНЕ.</i>	102
Иbroximova Zoxidaxon Ulug'bek qizi <i>PEDAGOGIKA KASBINING ASOSIY HUSUSIYATLARI ,PEDAGOGIK MAHORAT.</i>	106
Моминov Khurshidbek <i>TEMPORARY JOB WHILE STUDYING</i>	110
Nosirova Dilfuza Nabiyevna, Sobirov Begzodjon <i>DAVLAT HIZMATLARI QAMROVI VA TEZKORLIGINI OSHIRISH</i>	114
Mukhlisa Orifjonova <i>"EFFICIENT CONSTRUCTION OF SUITABLE TREES FOR SYNTACTIC ANALYSIS OF UZBEK SENTENCES "</i>	117
Astonova Go`zaxon Rahmonaliyevna, Axmadjonov Ulug'bek Xamidjon o`g`li <i>NEMIS TILI DARSLARIDA O`YINLARDAN FOYDALANGAN HOLDA XATOLARNI TO`G`RILASH USULLARI</i>	119
Saydazimova Saida <i>CHET TILLARNI O`QITISH JARAYONIDA LINGVO- MAMLAKATSHUNOSLIK KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH</i>	122
Alibekova Nodira <i>«BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA O`QISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI»</i>	126
Karimov Husniddin <i>"IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA MILLIYLIK</i>	129
Eshquvvatova Mahfuza Qayimjon qizi <i>UMAR IBN XATTOB ADOLAT TIMSOLI SIFATIDA (ROZIALLOHU ANHU)</i>	133
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna <i>ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO`NALISHLARINI NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI</i>	137
Mirzahamdamaova Shohsanam Komiljon qizi Po`latova Sevinch Vahobjon qizi, Quدراتova Aziza Xaydar qizi <i>MEVALI DARAXTLARNING SO`RUVCHI VA KEMURUVCHI ZARARKUNANDALARI</i>	144
Парпиева Одинахан Рахмановна, Хайриллоев Холдорбек Ихтиёржонович <i>ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА</i>	148
Eraliyev Zohidjon Muhammadovich <i>O`ZBEK XALQ QO`SHIQLARI TASNIFI.</i>	153
Imoilova Sanobarxon, Ismoilov Doniyorbek Ulug'bek o`g`li, Ne`matova Munajat Adhamjon qizi <i>O`ZBEKISTONDA SUG`URTANING RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI.</i>	157
Yergeshova O`giloy Seydilla qizi <i>SHAHARSOZLIKDA SALOMATLIK YO`LAKLARINI TASHKIL QILISH MASALALARI</i>	160
Nazarova Navbahor Ahrorovna <i>ANTROPONIMLAR MOHIYATI VA SEMANTIK TAHLILI</i>	167
Usmonova Zarina Habibovna, Nadirkhanova Nozima Alisherovna <i>THE DEPICTION OF SYMBOLS IN "FAHRENHEIT 451" BY REY BRADBURY</i>	171
Ayzada Abdugadirova, Majidova Ferangiz, Eshchanov Ruzumboy, Ataullayev Zakir <i>USE OF "SWOT-ANALYSIS" METHOD IN TEACHING CHEMISTRY</i>	176
Khalikulov Ganisher, Eshchanov Ruzumboy, Vafa Masharipov, Ataullayev Zokir <i>DEVELOPMENT OF STUDENTS' INDEPENDENT WORK SKILLS IN CHEMISTRY LESSONS USING THE TOOLS OF NON-STANDARD LABORATORY EXPERIMENTS</i>	178
Azimova D, Sharipova M <i>MOLGUZAR TOG` TIZMASI FLORASINING TAKSONOMIK STRUKTURASI</i>	181
Д.Э. Азимова, М. Шарипова <i>ЭНДЕМИЧНЫЕ И РЕДКИЕ ЭЛЕМЕНТЫ ФЛОРЫ ХРЕБТА МАЛЬГУЗАР</i>	185
Кулдашев Фарид Гулом ўгли <i>ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ</i>	187
Мамадалиев Asilbek Xayrullo o`g`li, Polvonov Xurshid Madaminovich <i>TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK</i>	190
Таджибекова Ирода Эмильевна <i>ПРОБЛЕМЫ ОПТИМИЗАЦИИ РЕЖИМА ИОНИЗАЦИИ ВОЗДУХА В ФРУКТОХРАНИЛИЩАХ</i>	195
Юлдашева Ф.Э <i>РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ ЭЛЕМЕНТОВ АЛГЕБРЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ</i>	201

ANTROPONIMLAR MOHIYATI VA SEMANTIK TAHLILI

Nazarova Navbahor Ahrorovna

Bukhara State University, the teacher of the English linguistics department

nazarovanavbahor2021@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada tilshunoslikda onomastikaning tarkibiy qismi bo'lgan antroponimlarning o'rganilishi, uning leksik tizimdagi o'rni haqida mulohazalar bildirilgan. Antroponim tushunchasining semantik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, lingvistik, antroponim, antroponimika, onomastika, til, ismshunoslik, etimologiya.*

Abstract. *The article discusses the study of anthroponyms, which are a component of onomastics in linguistics, and their place in the lexical system. Detailed information about the semantic features of the concept of anthroponym in linguistics is considered.*

Key words: *culture, linguistics, anthroponym, anthroponymy, onomastics, language, nomenclature, etymology.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы изучения антропонимов, являющихся составной частью ономастики в языкознании, и их место в лексической системе. Представлена подробная информация о семантических особенностях понятия антропоним в языкознании.*

Ключевые слова: *культура, языкознание, антропоним, антропонимия, ономастика, язык, номенклатура, этимология.*

Barcha tillarning leksik qatlamida atoqli otlar o'ziga xos o'ringa ega. Ular leksikaning barcha qatlamlari bilan uzviy bog'liqdir. Atoqli otlarni ham ilmiy ham amaliy jihatdan tahlil qilib tadqiq qilish tilshunoslikda dolzarb va muhim hisoblanadi. Til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega. Avvalambor, atoqli otlarni biz oilada chiroyli ism qo'yishda ko'proq foydalanamiz. Hamma narsaning nomi bo'lgani kabi insonlar ham atab qo'yilgan nomiga ega. Misol uchun, "inson" deganda yaxshimi, yomonmi shaxs ko'z o'ngimizda shakllansa, "kitob" so'zi umumiy atama bo'lgan turdosh otdir. Xohlagan tilga bu so'zlarni tarjima qilish mumkin. Atoqli otlar esa tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil talaffuz qilinib yoziladi. Masalan, Bahora, Karim, Jill, Carol, Анна, Максим. Fanda esa mana shu atoqli otlar antroponimlar deb ataladi.

Antroponim so'zining lug'aviy ma'nosini anglashdan oldin biz antroponomika atamasiga nazar tashlashimiz lozim. Ismlarni o'rganish borasida tilshunoslikda ismshunoslik yoki nomshunoslikning bir sohasi – onomastika bo'lib, antroponomikada kishilar ismi, sharifi, familiyasi, taxallusi, laqabi kabilar o'rganiladi. Antroponomika-yunoncha 'antros'-shaxs' va 'onoma'-ism so'zidan olingan bo'lib, leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (nomlarini) o'rganuvchi bo'limidir. Antroponomika nutqda antroponimning vazifasini aniqlab, insonning jamiyatga kirishi, boshqa e'tiqodga o'tishi,

yoshi, ijtimoiy yoki oilaviy ahvolining o'zgarishi, boshqa millatdagi odamlarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan farqlash, aniqlash, ismlarning o'zgartirishi, ularning kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanilishi, faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari, antroponomik tizimlar tuzilishi va rivojlanishi antroponomikaning tarkibiy qismidir.

Kishilarning atoqli otlari bo'lmish antroponimlar bu –avvalo so'z. Ammo, u oddiy so'z emas, atoqli ot. Tilshunos olimlar uchun ayni paytda antroponimlarning hali ham chuqur tadbiq etilmagan jihatlari mavjuddir. Antroponimlar haqida qancha fikrlar bildirilmasin, turli tillarda ularning qiyoslanib o'rganilishi hamon oxirigacha to'liq yoritilmagan. Barcha tillarda ismlar shunchalik ko'pki hammasining ham ma'nosi anglab yetilmagan. Nom qancha kam ishlatilsa va ko'hna bo'lsa vaqt o'tgan sari u noyob hisoblanadi va etimologiyasini o'rganishni talab qiladi. Ma'nosidan tashqari barcha nomlar atash vazifasini o'taydi. Kishilik jamiyati uchun antroponimlarning eng muhim va zaruriy vazifasi nom bo'lib xizmat qiladi. Demak, kishi nomi bir insonni ikkinchisidan ajratish va farqlash uchun muhimdir. Antroponimlar tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumotga ega. Shuningdek, eng asosiysi antroponimlarning semantik xususiyatlarga ega bo'lishidir.

Antroponimlar lisoniy, nutqiy va qomusiy ko'rinishga egadir. Lisoniy ko'rinishda shaxslar atalishi nazarda tutilib, ularni bir-biridan farqlaydi. Nutqiy ko'rinishda esa ismga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Masalan: "Ofat" ismli ayol ko'z o'ngimizda janjalga moyilligi bo'lgan shaxs gavdalanib unga nisbatan salbiy munosabat ifodalanadi. Uchinchi qomusiy ko'rinishda esa (appilyativ) sinonim ma'noga ega nomlar nazarda tutiladi: Mohichehra, Mohigul, Mohlaroyim ismlarda oyga xos bo'lgan nurlilik, go'zallik ma'nolariga tayanadi.

Odatda ismlarda milliylik, qadimiy, zamonaviylik nafasi ufurib turadi. Misol, Otabek, Anora, Hurmatoy, Umriya, Parvina, Nargiza.

Ismlar tarixi har bir davrning o'ziga xos ism berish odati borligidan darak beradi. Urug'chilik davrda berilgan nomlarda jasurlik, mardlik fazilatlarini ko'rinadi: Alp, Er, Kuchbars. O'zbek ismlarida ba'zan g'oyaviy qo'pol bo'lgan ismlarga duch kelamiz bu esa o'z o'rnida ota-onaning farzandini noqulay holatlarga qolishiga yo'l beradi: Teshaboy, Boltaboy, Olloqul, Gadoyboy.

"Familiyalar sizning oilangiz tarixi haqida ko'p narsalarni ochib berishi mumkin, ammo ular noto'g'ri ma'lumotlar koniga aylanishi mumkin" degan edi mashhur ingliz aktyori Paul Bleyk o'z maqolasida. Darhaqiqat, avom xalq o'z o'rnida ism bolaning kelajak- taqdiriga ta'sir ko'rsatadi deb ishonganlar, kishi ismi uning o'ziga o'xshaydi degan holda ularning ongida yaxshi va yomon ismlar mavjud degan aqidaga suyananlar. Turli millatlar onomastikasida bu ishonch yaqqol namoyon bo'la oladi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yishmaydi. Shuningdek, goldlarning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham fikrimiz dalilidir. Bolada yaxshi xislatlarni uyg'ota oladigan bu xosiyatli nom bo'lib kishini baxtli qiladi, yomon nom esa kishiga baxtsizlik, dard, o'lim, bala keltiradi deb o'ylashgan. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N.Vasilyev, P.P.Shimkevich, Y.L. Layants, D.K.Zeleninlar qiziqarli materiallarni yozib qoldirishgan. Yuqorida qayd etilgan noto'g'ri tasavvurlar tufayli nafaqat o'zbek balki arab millatida ham o'zlarini turli tasodif va zararlardan

saqlamoq uchun o'z shaxsiy nomlarini sir tutishgan. Bolaga buitta emas ikkita nom berishgan, asosiy nomi sir tutulib ikkinchi nomi bilan chaqirishgan. Bola qulog'iga asl ismi Muhammad deb azon o'qitib, ikkinchi nomi Yusuf deb amalda qo'llashgan.

Ism tanlashda rasm- rusum hisoblanmish o'tmishdagi ajdodlar, ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi odatidir. Bunga esa Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlar ham O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir: Muhammad, Ibrohim, Ismoil, Muhammadkarim, Fotima

O'zbek tilshunosligida bir qator olimlar antroponimlar tizimini tadqiq etganlar, ayniqsa E.Begmatov, S.Rahimov, G.Sattorov, I.Xudoynazarov, N.Husanov, R.Xudoyberganov, I.Xudoynazarov va boshqalar materiallar yig'ib, antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning etnografiyasi va lingvistik tuzilishini o'rganib izohli va orfografik lug'atlar tuzib fan bobida o'z hissalarini qo'shgan.

Xulosa qilganda, o'zbek antroponimikasiga oid ilmiy ishlar va tadqiqotlar va erishilgan yutuqlar juda samarali va ancha e'tiborga loyiq, biroq ularni ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma leksikografik tadqiqi yetarlicha o'rganilmagan va bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar o'z yechimini topganicha yo'q. Tadqiqot ishi mukammal ado etilishida quyidagi vazifalar muhim ahamiyatga ega deb hisoblandi:

o'zbek ismlarining imlo va izohli o'quv lug'atlarini tuzib, ularni hozirgi zamon talablariga mos ravishda chop ettirish; o'zbek antroponimlari tarkibidagi eng qadimgi sug'diy, uyg'ur, hind, mo'g'ul, arab, rus va fors-tojik baynalminal qatlamlarni ya'ni o'zlashma qatlamni maxsus o'rganish; Shuningdek, ingliz nomlarining leksik qatlamga munosabati masalalarini yoritish ham eng muhim vazifalardan biri bo'lib, ularni leksikografik tadqiqi masalasi ham keng ko'lamda ochib berilishi davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarova, N. A. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM (In Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 1, pp. 90-6).
2. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110-112
3. Nazarova, N. (2023). ONIMIK LEKSEMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI . *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9709



4. Ahrorovna, N. N. , & Niginabonu, Y. . (2022). English Clubs in Non –Traditional Ways for Young Learners. *Miasto Przyszłości*, 30, 265–266. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/912>
5. Nazarova, N. (2023). BASES OF THE THEORETICAL STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR CHARACTERISTICS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 31(31). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9285
6. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Muhiddinova Marjona. (2023). INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 179–185. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3920>
7. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Akhmedova Marjona Rashidovna. (2023). DIFFERENCES BETWEEN AMERICAN AND BRITISH ENGLISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 156–161. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3909>
8. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2023). ANTROPONIMLAR TILSHUNOS OLIMLAR TADQIQIDA. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. FARS Publishers, 11(2), 400–405. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7644149>
9. Ahrorovna, N. N., & Shaxribonu, A. (2022, January). Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 116-118).
10. Nazarova, N. A. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM (In *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, Volume 3, Issue 1, pp. 90-96).
11. Djalilova, Z. (2022). ОПИСАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗА ПОСТРЕДСТВОМ ЦВЕТОВ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 26(26). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567
12. Ahrorovna, N. N. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 90-96.